

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**TARJIMONLIK FAKULTETI**

**ARAB TILI TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

**“ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA: INNOVASION  
YONDOSHUVLAR VA O‘QITISH METODIKASI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMAN**

**AXBOROT XATI**

O‘zbekiston oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil 11 noyabrdagi 3/19-4/4-2862-son xatiga muvofiq O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida **2022 yil 15 dekabr** kuni Xalqaro arab tili kuniga bag‘ishlangan «**Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondoshuvlar va o‘qitish metodikasi**» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishini ma‘lum qiladi.

Shu sohada izlanish olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, soha mutaxassislarini anjumanda ishtirok etishga taklif qilinadi.

Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi:

**1. Arab tilini o‘rganish: muammolar va yechimlar.**

**2. Zamonaviy arab adabiyoti: she‘riyat va nasr.**

**3. Arab tilini chet tili sifatida o‘qitishdagi innovatsion yondoshuvlar va jahon tajribasi.**

**4. Arab-o‘zbek va o‘zbek-arab tarjimashunosligining zamonaviy tendensiyalari.**

Anjumanda ishtirok etish shakli: kunduzgi va ZOOM dasturi orqali.

<https://us02web.zoom.us/j/86886479884?pwd=V0lmWFRRL0R6Tm56QTdRUHNoMWI3QT09>

To‘plam <https://conference.fledu.uz> platformasida nashr etiladi.

Konferensiyaga ulanish havolasi <https://t.me/ArabTTNAK> kanaliga yuboriladi.

Anjuman materiallarini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

Maqola mavzusi bosh harflarda (14 shrift) o‘rtada yozilib, keyingi qatordan muallif(lar) ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi (tashkilot, bo‘lim, kafedra nomi) egallagan lavozimi, telefon raqami va elektron manzili yoziladi. Undan keyin 1,5 interval pastda xat boshidan ma‘ruza matni yoziladi; maqolalar MS Word, Times New Romanda 5-8 bet hajmda (o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotasiya va kalit so‘zlar bilan) 14 shrift, 1,5 intervalda, chap tomondan 3 sm, o‘ng tomondan 1,5sm, yuqori va past tomondan 2 sm qoldirilgan holda yoziladi; maqolalarda manbalarga havolalar [ ] da matn ichida qo‘yilib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi raqam asosida ko‘rsatilishi shart (Masalan, [5, 128.]); maqolalar elektron shaklda yuboriladi.

Maqolalar **2022 yilning 12 dekabriga qadar** elektron shaklda tashkiliy qo‘mitaga yuborilishi lozim. Yuqoridagi talablarga javob bermagan va ko‘rsatilgan muddatda taqdim etilmagan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Qabul qilingan maqolalar anjuman materiallari sifatida to‘plam holida nashr qilinadi. Maqolalar quyidagi elektron pochta yoki telegramm raqamlariga jo‘natilishi mumkin:

kamalakodirova@mail.ru  
arabuzb2022@gmail.com.

Kamola Qodirova: (+99890 951 01 23)  
Ahmad Al Zubaidi: (+ 99890 008 88 54)